

Kommunal sohadagi loyihalar haqida axborot berildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev kommunal xizmatlarni yaxshilash va aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash borasidagi ishlar hisoboti bilan tanishdi.

Yurtimizda 39 ming 700 taga yaqin ko'p qavatli uylar bor. Ularda yashovchi aholiga sifatli xizmat ko'rsatish maqsadida boshqaruv-servis kompaniyalari tashkil etilmoqda. Joriy yil boshida bunday tashkilotlar 324 ta bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib 766 taga yetgan. Shu tariqa, 36 mingdan ziyod yoki 92 foiz ko'p qavatli uylar boshqaruv-servis kompaniyalari bilan qamrab olingan.

Bu yilning o'zida ular tomonidan qurilish, ta'mirlash, texnika va uskunalar xarid qilishga 262 milliard so'm investitsiya kiritilgan. Yangi tashkil etilgan kompaniyalarda 14 mingga yaqin ish o'rnini yaratilgan.

Xonadonlar haqidagi ma'lumotlar va hisob-kitoblar "Mening uyim" billing tizimida mujassam bo'lmoqda. Joriy yilning o'tgan davrida bu tizim orqali 206 milliard so'm to'langan.

Sohadagi muhim vazifalardan biri - uylarni issiqlik bilan barqaror ta'minlash. Bu borada hududlarda manzilli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ko'p qavatli uylarning yarmidan ko'pi markazlashgan va individual issiqlik ta'minoti tizimiga ega. Qolganlari muqobil pechlar, elektr isitgichlar yoki boshqa uskunalar yordamida isitiladi.

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi tasarrufida 495 ta qozonxona faoliyat yuritmoqda. 2018-2021-yillarda ularning 47 tasi va 78 kilometr issiqlik tarmog'i rekonstruksiya qilindi. Bu yil Buxoro, Samarqand, Qarshi, Jizzax, Namangan, Asaka kabi shaharlardagi yana 24 ta qozonxona va 182 kilometr tarmoq yangilandi. Natijada 70 ming xonadon va 113 ta ijtimoiy obyekt uzluksiz issiqlik energiyasi bilan ta'minlandi.

Umuman aytganda, bu loyihalar samarasida ko'p qavatli uylarning issiqlik energiyasi bilan ta'minlanganlik darajasi yanada ortdi. Yiliga 130 million kub metr tabiiy gaz, 1 million 200 ming kilovatt soat elektr energiyasi tejaladigan bo'ldi.

Bunday ishlarni izchil davom ettirib, 2023-yilgi investitsiya dasturi doirasida 3 ta yangi qozonxona qurish, 10 tasini ta'mirlash va issiqlik tarmoqlari tortish rejalashtirilgan.

Aholini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha ham ko'p ishlar qilinmoqda. Joriy yilda 527 ta inshoot hamda qariyb 7 ming kilometr tarmoq barpo etildi. Yil boshida aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 70 foiz bo'lgan bo'lsa, yil yakunida bu ko'rsatkichni 74 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Mahallalar kesimida aytganda, 9 ming 309 ta mahalladan 3 ming 800 tasi to'liq, qariyb 4 mingtasi qisman markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlangan. Qolgan qishloqlarga suvni transportda yetkazish, shu bilan birga, imkoni bor joylarga tarmoq tortish choralari ko'rilmogda. Jumladan, 2023-yilda Investitsiya dasturiga asosan 62 ta, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida 373 ta obyekt foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Bu ishlar natijasida 403 ta mahalladagi 3 milliiondan ziyod aholining ichimlik suvi ta'minoti yaxshilanadi, 181 ta mahalla ilk bor bu tarmoqqa ulanadi.

Shuningdek, davlatning ijtimoiy buyurtmasi orqali tuman markazidan olisda joylashgan mahallalarni ichimlik suvi bilan ta'minlash loyihalari amalga oshirilmoqda. Kelgusi yilda 17 ta shunday qishloqqa 251 kilometr quvur tortilishi rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari bu ishlarning hayot sifati va aholi salomatligidagi ahamiyatini ta'kidlab, qo'shimcha

ko'rsatmalar berdi.



Manba